

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.
Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

A.Mamadaliyev, X.Kushiyeu, Z.AbdullayevaSirdaryo viloyati sharoitida og'ir metallardan *Cannabis Sativa L.* o'simliklarining himoya qilishda fenolli tizimi 358**A.Turdaliyev, K.Asqarov, M.Aktamov**

Sug'oriladigan tuproqlarning biogeokimyoviy muammolari 363

ILMIY AXBOROT

F.Madraximova

Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda hamkorlik texnologiyalari 369

M.Nasirov

Badiiy matnning assotsiativ maydon tahlili..... 372

B.Muxtoraliyev

Anvar Obidjon ijodi adabiyotshunoslik ko'zglasida 375

X.Mamatismoilova

Tarixiy etnolisoniy jarayonlar va o'zbek xalqining milliy tili 379

K.Topvoldiyev

Lingvokulturologiyada "sharq" konseptining masalalari 384

Z.Akbarova, D.Rustamova

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida leksik sinonimlarni faollashtirish bosqichlari 388

Song Ho-Lim

Chig'atoy turkiyning adabiy-uslubiy xususiyatlari..... 391

O.Uzaqova

Ingliz va o'zbek tillarida kompyuter terminografiyasining lingvistik xususiyatlari 396

F.Anvarova

Ilk o'rganuvchilarda ingliz tili o'qitishning pedagogik usullari 400

Sh.Iskandarova, S.Sotvoldiyeva

Mavhum otlar va ularning o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi xususida 404

M.Yusupova

Evfemizmlar tasniflarining tahlili 407

F.Nurdinova

Tarjimada so'z tanlash mahorati xususida..... 409

Sh.Sherg'oziyev

«Boburnoma» matnidagi shaxslar tasvirida saj'i matavoziyning o'rni va ularning inglizcha tarjimalarda aks etishi..... 413

Z.Pazilova

O'zbek va nemis tillarida dafn marosimi bilan bog'liq leksik birliklar tahliliga doir 416

Z.Axmedova

Lingvokulturologiya nazaridagi rimlar 420

Sh.Dushatova

Tabu so'zlar o'rganilishi va kelib chiqish tahlili..... 425

BIBLIOGRAFIYA 428

TARJIMADA SO‘Z TANLASH MAHORATI XUSUSIDA
(E.L.Voynichning “So‘na” romanining rus va o‘zbek tillari tarjimasi misolida)

ОБ ИСККУСТВЕ ВЫБОРА СЛОВА В ПЕРЕВОДЕ
(На примере русско-узбекского перевода романа Э .Л. Войнича «Овод»)

ABOUT THE SKILL OF CHOOSING WORDS IN TRANSLATION
(as an example of the Russian and Uzbek translation of the novel "Gadfly" by E.L.Voynich)

Nurdinova Fotima Xolmirzayevna¹

¹Nurdinova Fotima Xolmirzayevna

- Namangan muhandislik-texnologiya instituti
tayanch doktoranti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarjimachilik sohasida dolzarb bo‘lib turgan masalalardan biri badiiy tarjimada tarjimon mahoratini namoyon bo‘lishi va ahamiyatli jihatlarini haqida so‘z yuritilgan. Bunda aslyat muallifi uslubi, milliy o‘ziga xoslik, davr ruhini tarjimada aks ettirilishi misollar orqali ifodalab berilgan. Bundan tashqari, badiiy asarda obrazlilik va uni tarjimada aks ettirishning ahamiyatli tomonlari misollar orqali bayon etilgan. Shu o‘rinda tarjimonning so‘z tanlash mahorati tilga olingan.

Аннотация

В данной статье рассматривается один из самых актуальных вопросов в области перевода, проявление и важные аспекты мастерства переводчика в художественном переводе. При этом авторская манера выражения, дух национального самосознания периода находит свое отражение в переводе через примеры. Кроме того, иллюстрируются важные аспекты образности и ее воплощения в художественном произведении. Здесь упоминаются навыки переводчика в выборе слов.

Abstract

This article discusses one of the most pressing issues in the field of translation, the manifestation and important aspects of the skill of a translator in literary translation. In this case, the author's style of expression, the spirit of national identity of the period is reflected in the translation through examples. In addition, important aspects of figurativeness and its translation in a work of art are illustrated. The translator's word choice skills are mentioned here.

Kalit so‘zlar: tarjimon mahorati, aslyat matni, yozuvchi uslubi, tarjima tarixi, umummilliylik, obrazlilik, asar qahramoni, manzara tasviri, transliteratsiya, muqobil vosita.

Ключевые слова: мастерство переводчика, оригинальный текст, писательский стиль, история перевода, национальность, образность, главный герой, пейзаж, транспитерация, альтернативные средства.

Key words: translator skills, original text, writer's style, history of translation, nationality, imagery, protagonist, landscape, transliteration, alternative means.

KIRISH

Tarjima ijodiy jarayondir. Biroq, turli ilmiy-tanqidiy mulohaza va xulosalar tarjimonga ma‘lum darajada yo‘l ko‘rsatib turadi, ularning umumiy tasavvurini boyitib, uning amaliyotda yuz berishi mumkin bo‘gan har-xil tasodifiy to‘siqlardan mohirona o‘tish malakasini paydo qiladi.

Aksariyat so‘z san‘ati namoyandalari o‘z original ijodlari bilan birgalikda badiiy tarjima bilan ham shug‘ullanib keladilar. Ayrim qalamkashlar faqat tarjima orqaligina tanilgan bo‘lsalar, boshqalari adabiy merosining katta qismini qayta yaratish san‘atini tashkil etadi. Yana bir toifa adiblar ham borki, ularning qalamiga mansub asarlar orasida tarjimalar ko‘p bo‘lgani bilan, afkor omma ularni mutarjim deb emas, “sof milliy ijodkor” sifatida taniydi.

Bizga ma‘lumki, malakali tarjimon aksariyat hollarda muayyan xalqlar turmush tushunchalarini kontekstda ishlatilgan so‘zlarni tarjimada qayta tiklash masalasi bilan shug‘ullanadi. Bunda mutarjim originaldagi milliylikni - o‘ziga xalq milliy o‘ziga xosligini tarjima tiliga mansub bo‘lgan boshqa tushuncha bilan aralashtirib yubormasligi darkor. Aslyatda berilgan milliy ruh - aytaylik bu Evropa xalqlari turmush tarziga oid so‘z bo‘lsa, uni Osiyo xalqlari madaniyatiga oid tushuncha bilan ifodalamasligi lozim. Boshqacha aytganda, aslyatni atayin milliy lashtirib qo‘ymasligi kerak.

Xalqlar turmush tarzini anglatadigan so'zlar tarjimasida, tarjima tilida ularga har jihatdan mos, ayni paytda, shu til me'yorlari va madaniyati hazm qiladigan vositalarni tanlash zarur bo'ladi. Bunday tushunchalar bir qator xalqlar tafakkurida ham ayni bir xil aks etishi mumkin. Masalan, o'zaro yaqin bo'lgan xalqlar - o'zbeklar va tojiklar, ruslar-ukrainlar-beloruslar, olmonlar-inglizlar-gollandlar yoki kavkaz xalqlari kabi madaniy va iqtisodiy yaqin xalqlarda ko'plab so'zlar, tushunchalar, qarashlar, orzu-umidlar, xursandchilik va tashvishlari uyg'unligi mavjud. Bu tillardan o'zaro o'girmalardagi milliy bo'yoqlar uyg'unligi tarjimon uchun ayni muddaodir. Shuningdek, milliy tushunchalar ifodasi uchun qo'llanadigan so'zlarning ko'pchiligi o'zga tilga ham aynan muvofiq tushunchalar berilishi mumkin yoki aksincha. Jumladan, Amerika xalqi qo'llaydigan ko'plab so'zlar va milliy ruhdagi tushunchalar jahon xalqlarining globallashuvi natijasida umummilliylik kasb etib bormoqda. Bu so'zlar va iboralar jahon xalqlari lug'atidan allaqachon mustahkam o'rin egallagan. Xalqlar turmush tarzini keng ommalashtirishda televideniya, radio, kino va matbuotning roli beqiyosdir. Ushbu holatlar tarjimonga bir qator yengilliklar berishi tabiiy.

Bundan tashqari, u yoki bu xalq milliy tushunchalarini anglatadigan ko'pchilik so'z va iboralarning ma'no va vazifalari mamlakatlarning o'zaro madaniy, siyosiy-iqtisodiy, savdo-sotiq kabi xilma-xil aloqalari natijasida bir qator xalqlarga, shu jumladan tarjima tili sohiblariga ham tushunarli bo'lib boradi.

O'zaro mushtaraklikka ega bo'lmagan, turli til oilalariga mansub bo'lgan tillararo tarjima borasida gap borganda taniqli tarjimon, yozuvchi, qolaversa, adabiyotshunos olim Mirzakalon Ismoilning tarjima ishlarini tadqiqotlarimiz jarayonida o'rganib, e'tiborga molik ekanligiga yana bir bor ishonch xosil qildik.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yozuvchi Mirzakalon Ismoil o'zining butun umrini adabiy asarlarni tarjima qilish san'atidek sharaflil ishga bag'ishladi. U dunyo adabiyotining eng sara asarlarini qayta yaratib, ona xalqiga etkazish orqali uni ma'rifatli qilish, uyg'otishga yeng shimargan adiblardan. Bunga E.L.Voynichning "So'na" romani tarjimasini yorqin misol bo'la oladi. Mutarjim Mirzakalon Ismoil romani tarjimasida o'zbek kitobxonini ma'naviy dunyosida to'laqonli shakllanishi maqsadida ona tilining barcha imkoniyatlaridan unumli va samarali foydalanishga urindi. U yozuvchi yaratgan timsollar dunyosi ichiga kirib bordi, tarjima jarayonida ular bilan hamnafas yashadi, xususan, romanning ruhiyati bilan tanishish asnosida asarning ruscha tarjimasini mufassal o'rgandi. Asarning o'zbek tiliga o'girilgan nusxasini kuzatib, tarjimonning sermahsul ijod jarayoni ostida naqadar mashaqqatli mehnati yotganini teran anglaymiz.

Ma'lumki, "So'na" romani va uning muallifi to'g'risida tadqiqotchi va adabiyotshunoslar tomonidan yetarli darajada ilmiy ishlar olib borilgan. Bu asar kurash ruhiga to'liqligi, sotsial tabaqalanishga qarshiligi, ateizmga moyilligi bois sovet davrida ko'p e'zoz topdi. Boshqacha aytganda, mazkur roman sho'ro tafakkuriga bo'ysundirilgan. Ammo asarning tub mag'zi, asosiy ijtimoiy asosi - Vatan erkinligi g'oyasi edi. Mirzakalon Ismoil ana shuni yaxshi angladi va asarni jon kuydirib tarjima qildi. Garchi "So'na" o'zbek tiliga asliyatdan emas, balki rus tilidagi tarjimasidan-bilvosita o'girilgan bo'lsa-da, juda ko'p hollarda tarjimon asar matni va ruhiyatidan kelib chiqqan holda tilimiz xazinasidan imkoniyati boricha so'z va iboralarni qidirib topib, tarjimoni asliyatga munosib yuqori saviyada amalga oshirishga harakat qilgan. Har gal roman tarjimasini yangitdan nashr etilar ekan, takror-takror tahrir qilishdan charchamadi. "So'na" M.Ismoil uchun chinakam kashfiyot bo'ldi. Bu romanni o'qigan kitobxon asar ruhi va uslubi ona tilimizda beqiyos mahorat bilan qayta tiklanganiga amin bo'ladi. "So'na" romani tarjimasida diniy mazmundagi jumlar juda ko'p. Tarjimon aksar o'rinlarda ularni diniy asarlar uslubiga xos tarzda to'g'ri tarjima qilgan. Chunonchi:

Asliyatda: "Peace be with you, my children" [4. b-141].

Ruscha tarjimasini: Мир вам, дети мои [5. b-184].

O'zbekcha tarjimasida: Parvardigor o'z panohida asrasin sizlarni, bolalarim [6. b-192]. Bu so'zlar yepiskop Montanelliga tegishli.

Tarjimon Mirzakalon Ismoilning tarjimada so'z tanlash mahoratiga tan bermay iloj yo'q. Yuqoridagi misolda asliyatdagi "Peace be with you, my children" iborasini inglizcha variantini jo'n tarjima qilinsa "Tinchlik siz bilan bolalarim" tarzidagi ma'nogina chiqardi xolos. Natijada, o'zbekchada diniy ulamolar nutqiga xos bo'lgan bunday chiroyli ifoda yuzaga chiqmagan bo'lar edi.

Shu o'rinda, asar qahramoni kardinal Montanellining maydondagi xalqqa bergan fatvosi tarjimasiga e'tiborni qaratsak:

Asliyatda: He raised his eyes at last, and gave the benediction with a hand that was not quite steady - "God is merciful," he said. "Lay your burden before his throne; for it's written: A broken and contrite heart shalt thou not despise [4. b-143].

Ruscha tarjimasida: Наконец он поднял глаза и нетвердой рукой благословил народ: - Господь всемилостив! "Сложите к престолу его бремя души вашей, ибо сказано: "Сердца разбитого и сокрушенного не отвергай" [5. b-186].

O'zbekcha tarjimasida: U axiyri ko'zlarini baland ko'tarib, xiyol titrab turgan qo'llari bilan xalqqa fatvo berdi. - O'llohu taolloning marhamati ulug'dir, - dedi u, - qalbingdagi dardingni dargohiga borib arz et, chunki: "o'rtangan va vayron bo'lgan qalbdan yuzingni o'girma", degan [6. b-195].

Boshqa jihatlarini soqit qilib, birgina "**dardingni dargohiga borib arz et**" kalimasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, dard va dargoh so'zlari o'rtasidagi ohangdoshlikni ko'ring. Qalay? Ohangdoshlik qanday tiklanganligini ko'ryapsizmi? Mana yana bir misol asarning birinchi bobida berilgan Montanelli bilan Artur o'rtasidagi suhbatga e'tiborni qarataylik:

Asliyatda: "My son» he said, God forbid that I should say He has not spoken to your soul. But remember your condition when this thing happened, and do not take the fancies of grief or illness for his solemn call. And if, indeed, it has been his will to answer you out of the shadow of death, be sure that you put no false construction on his word. What is this thing you have it in your heart to do?" [4. b-8].

Ruscha tarjimasida: -Сын мой!- проговорил он. Я не посмею сказать, что господь не обращался к твоей душе. Но вспомни, в каком ты был состоянии тогда, и не принимай болезненную мечту за высокий призыв господя. Если действительно такова была его воля – ответить тебе, когда смерть посетила твой дом,- смотри, как бы не истолковать ошибочно его слово. Куда зовет тебя твое сердце? [5. b-24].

O'zbekcha tarjimasida: -O'g'lim!- dedi u, nihoyat. Parvardigor ruhing bilan gaplashmadi, deb aytishdan mani xudoning o'zi saqlasin. Lekin bu narsalar qanday vaziyatda yuz beganini unutm va unutmashlik bilan birga, qayg'uga cho'mgan betob kishining orzularini parvardigorning tantanali chaqirig'i deb qabul ham qilma. Agar chindan ham parvardigor senga javob qilishni ixtiyor etgan bo'lsa, tayyor bo'l, uning so'zlarini xato tushunib yurma tag'in. Jonsarak turgan joning sani qaysi tomonlarga chorlayapti?

Asliyatda berilgan "What is this thing you have it in your heart to do?" rus tilida "Куда зовет тебя твое сердце?" Mutarjim bu kalimaga jo'ngina qaraganda: "Joning qayoqqa chorlayapti?" tarzida bergan bo'lardi. Lekin Mirzakalon Ismoiliiy badiiy tarjima yumushiga shunchaki yuzaki emas, balki haqiqiy ijodiy ish sifatida yondoshgan holda, "Jonsarak turgan joning sani qaysi tomonlarga chorlayapti?" ko'rinishida beradi. "Jonsarak joning" kalimasidagi ohangdoshlik tarjimon mahoratini namoyon etadi.

Tarjimonning so'z ustasi ekanligini professor G'aybulla Salomov ham e'tirof etib, - "Mirzakalon Ismoiliiy asarlarining tili o'rganilib, "Mirzakalon lug'ati" tuzilsa olijanob ish bo'lar edi, deb yozgan edilar. –bu o'sib kelayotgan yosh ijodkorlar uchun mahorat maktabi bo'lishi turgan gap" [7. b-18].

Asar ruhi va uslubini tilimizda beqiyos mahorat bilan qayta tiklanganiga nafaqat o'zbek kitobxonlari, balki boshqa millat vakillari ham lol qolganligiga izlanishlar davomida guvoh bo'ldik.

USLUB

Tadqiqot materiallari, asosan, asliyat tili sifatida ingliz tilida va tarjima tili sifatida rus va o'zbek tillarida mavjud. Ushbu tadqiqotni yozish jarayonida tarjimada so'z tanlash mahoratini belgilashda so'z va iboralarni ingliz, rus va o'zbek tillaridagi ekvivalentlarini solishtirishda qiyoslash, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

NATIJA

Tarjimadagi ohangdoshlikni ko'rgan har qanday kitobxon tarjimonni bebaho uslub egasi ekanligidan bahramand bo'ladi. Mirzakalon Ismoiliiy tarjimada uslub ustasi ekanligi bilan mashhur edi. Uning qalamidan chiqqan asarlarini o'qigan har qaysi kitobxon, har qaysi muallif, asar mavzuyi va ruhiga qarab uning uslubi ona tilimizda beqiyos mahorat bilan qayta tiklanganiga guvoh bo'ladi.

XULOSA

Moskvalik adabiyotshunos olim Yevgeniya Taratuta tadqiqoti davomida M.Ismoilij qalamiga mansub "So'na" tarjimasini topib oladi. So'ngra M.Ismoilij nomiga maktub yo'llaydi. Xatida Etel Lilian Voynich ijodini tadqiq etishga kirishganini ma'lum qiladi hamda uning "So'na" romani o'nlab tillarga o'g'irilganligini, ammo bu tarjimalarning hech biri o'zbekcha tarjimachalik muvaffaqiyat qozonmaganini bayon qiladi. Asar, E.Taratuta baho berganidek, hali-hanuz mashhur. Asar tarjimasini o'qir ekansiz, uning Voynich romani uslubiga bu qadar mos keladigan ijod namunasini yaratganidan, ayrim joylarda esa, basharti Voynich o'zbek tilida ijod qilganida, xuddi shunday yozgan bo'lar edi, deydi darajaga etkazganini ko'rib hayratga tushamiz.

ADABIYOTLAR

1. Salomov G'. Tarjima tashvishlari, Toshkent, "Adabiyot va san'at", 1983.
2. The Macmillan English Dictionary, Macmillan Education, England, 2002.
3. Сиротина Т. А. Большой современный англо-русский русско-английский словарь, Донецк, 2003.
4. Ethel Voynich. The Gadfly. England, 1889.
5. Этель Лилиан Войнич. Овод. Перевод Н. Волжиной. Ташкент, 1984.
6. Etel Lilian Voynich. So'na. Ruschadan Mirzakalon Ismoilij tarjimasini Toshkent, 1956.
7. Zuhridin Isomiddinov. Mirzakalon Ismoilij va til madaniyati. Til va adabiyot jurnali. 2018. 9-son. 18-bet.

(Taqrizchi - D.M.Xoshimova, filologiya fanlari doktori, dotsent)